ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARIDA TUZILADIGAN SHARTNOMALARNING HUQUQIY TABIATI

Allambergenova Zamira Rasbergen qızı – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro biznes huquqi" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron tijorat platformalarida tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiati, milliy va xalqaro qonunchilikdagi tartibga solish masalalari, shuningdek, iste'molchi va tadbirkor huquqlarini himoya qilish sohasidagi mavjud bo'shliqlar tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi , "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun hamda "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun asosida elektron shartnomalarning yuridik kuchi, elektron xabar yuborilgan va qabul qilingan vaqti, platformalarning vositachi sifatidagi javobgarligi, shuningdek, transchegaraviy bitimlarda qo'llaniladigan huquq masalalari muhokama qilinadi. Shu bilan birga, maqolada xalqaro tajriba – UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce, Yevropa Ittifoqi normativ-huquqiy aktlari va boshqa xorijiy tajribalar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola elektron tijoratning huquqiy infratuzilmasini mustahkamlash va iste'molchi hamda tadbirkor o'rtasida ishonchni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron shartnoma, iste'molchi huquqlari, transchegaraviy bitimlar, elektron identifikatsiya,.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, elektron savdo platformalarining global miqyosda kengayishi va transchegaraviy onlayn bitimlar hajmining ortishi elektron tijoratda tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiatini aniq belgilashni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat bo'yicha asosiy normativ baza shakllangan bo'lsa-da, elektron platformalar orqali tuziladigan shartnomalarning yuridik kuchi, platformalarning vositachi sifatidagi huquqiy

maqomi, elektron identifikatsiya vositalarining tan olinishi, shartnoma tuzilgan deb hisoblanadigan aniq vaqt, shuningdek, xalqaro xususiy huquqda qo‘llaniladigan huquqni aniqlash masalalari hali ham batafsil tartibga solinmagan. Ayniqsa, elektron platformalarning texnik vositachi sifatida yoki faol ishtirokchi sifatidagi rollarini farqlash mexanizmlarining yo‘qligi, iste’molchi huquqlarini yetarlicha himoya qilinmasligi, transchegaraviy bitimlarda qo‘llaniladigan huquqning murakkabligi amaliyotda nizolar ko‘payishiga olib kelmoqda.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqining E-commerce Directive, AQShning UETA va E-SIGN Act, Yaponiya, Janubiy Koreya hamda UNCITRAL Model Qonunlari elektron shartnomalarning huquqiy tabiatini aniq belgilash orqali elektron tijorat bozorida barqarorlik va ishonchni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. O‘zbekistonning elektron tijorat bozorini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, investorlar va iste’molchilar uchun huquqiy aniqlikni ta’minlash, shartnomalarning yuridik kuchi va bajarilishini kafolatlash maqsadida xalqaro xususiy huquq bo‘yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur loyiha elektron tijorat platformalarida shartnomalar tuzish jarayonini aniq tartibga solish, platformalar javobgarligi, qo‘llaniladigan huquq, identifikatsiya mexanizmlari, elektron oferta va akseptning yuridik kuchi kabi institutlarni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, elektron tijoratning huquqiy infratuzilmasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shartnoma – qadimiy huquqiy konstruksiya bo‘lib, o‘zining ildizlarini Qadimgi Rim huquqi davridan oladi. O‘sha vaqtlarda shartnomalar asosan og‘zaki, ramziy tizim yordamida tuzilgan va ijro etish majburiyati qasamyod bilan kafolatlangan edi. Shartnomalardan oldin deliktlar yuzaga kelgan, bu davlat tomonidan sanksiyalangan qoidalardan chekinishga berilgan reaksiya edi. Biroq, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan odamlarning irodasini o‘zaro

muvofiqlashtirish imkonini beruvchi modelni yaratishga bo‘lgan obyektiv ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shartnoma ana shunday modelga aylandi. Vaqt o‘tishi bilan shartnomaning mohiyati va maqsadi tushunchasiga doir ko‘plab konsepsiyalar ishlab chiqildi.

Shartnomaning asosiy ahamiyati qonun doirasida odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Bu faqat moslashuvchan huquqiy tizimda, subyektlarga qonun bilan belgilangan chegaralar doirasida, turli xil munosabatlarda o‘zlari uchun mustaqil ravishda huquq va majburiyatlarni belgilashga imkon beradigan tizimda mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, shartnomaning mohiyati qonunning mohiyatiga o‘xshaydi: u o‘z tabiati bilan imperativdir, lekin faqat uni tuzgan tomonlar uchungina. “Pacta sunt servanda” (lotincha: Shartnomalarga rioya qilinishi shart) – qadimiy huquqiy prinsip bo‘lib, shartnoma asrlar davomida barqaror konstruksiya bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-moddasiga ko‘ra, shartnoma - ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi deb tan olinadi [1]. Shu bilan Fuqarolik kodeksi shartnomaning ikki tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatadi: fuqarolik huquqlari va majburiyatlari ko‘rinishidagi uning mazmuni, shuningdek, tomonlarning iroda bildirishini mustahkamlash usuli – kelishuv. Mazkur moddaning 2-bandida shartnomalarga ikki va ko‘p tomonlama bitimlar to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanilishi aniqlashtirilgan. Fuqarolik Kodeksining 9-bobida jamlangan bitimlar to‘g‘risidagi normalar shartnomaga nisbatan subsidiar tartibda (ya’ni, umumiy qoidalar yetarli bo‘lmagan hollarda bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun) umumiy normalar sifatida qo‘llanilishi lozim.

Shartnoma fuqarolik muomalasi ishtirokchilari faoliyatining ideal shakli bo‘lib xizmat qiladi. Jismoniy va yuridik shaxslar o‘z huquqlarini amalga oshirishning ko‘plab usullari orasida shartnoma asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. N.D. Yegorovning shartnoma – bu noyob huquqiy vosita bo‘lib, uning doirasida har

bir tomonning manfaati faqatgina ikkinchi tomonning manfaatini qondirish orqali qondirilishi mumkin, degan fikriga qo‘shilmaslik mumkin emas [2].

Lekin fuqarolik-huquqiy shartnomalar va sof tijoriy (savdo) shartnomalarni ajratish zarur. Bunday farqlash zarurati tijorat aylanmasining talabi va ijtimoiy munosabatlarning ehtiyoji bilan belgilanadi.

Tijoriy shartnomalar – savdo faoliyati subyektlari tomonidan tuziladigan, o‘z oldiga tovarlarni sotish yoki shu bilan bog‘liq xizmatlarni haq evaziga ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan shartnomalardir. Bunday shartnomalar tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishda huquqiy vosita sifatida xizmat qiladi.

S.V. Vasilyevning to‘g‘ri ta’kidlashicha, Internet tarmog‘i orqali tuzilgan shartnomalar bitimlarning yangi turi emas, balki faqat internet-texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarni tuzishning yangi usulidir [3]. Elektron tijoratning mazmuni o‘zgarmaydi – bu hali ham bitimlar tuzishdir. O‘zgaradigan narsa – bu shakl bo‘lib, endi bitimlarni elektron hujjatlar almashinuvi va boshqa usullar orqali amalga oshirish mumkin bo‘ldi.

Elektron shartnoma raqamli iqtisodiyotning fundamental elementi bo‘lib, huquqshunoslikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositasida tuzilgan, tomonlarning o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilovchi yuridik bitim sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yilda yangi tahrirda qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuniga [4] ko‘ra, elektron tijoratdagi shartnoma elektron hujjat shaklida, taraflar o‘rtasida shartlarni elektron hujjatlar va (yoki) xabarlarni tasdiqlash yo‘li bilan kelishish orqali tuziladi.

Elektron tijorat platformalarida tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiati sohasida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati dolzarb hisoblanadi. Shu munosabat bilan quyidagi o‘zgarishlarni kiritish taklif qilinadi:

1-taklif. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga “Elektron shaklda tuzilgan shartnoma” haqida yangi modda kiritish:

“366¹-modda. Elektron vositalar orqali tuzilgan shartnomalar”

1. Elektron tijorat platformalarida avtomatlashtirilgan tizimlar, elektron agentlar, algoritmlar yoki ma’lumotlar almashinuvi orqali tuzilgan shartnomalar taraflar roziligiga tenglashtiriladi.

2. Elektron xabar yuborilgan vaqt deb — xabar tarafning boshqaruvidagi axborot tizimidan chiqarilgan vaqt;

3. Qabul qilingan vaqt deb — xabar qabul qiluvchi tarafning axborot tizimiga kirgan vaqt hisoblanadi.

4. Elektron platforma shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun javobgar bo‘lmaydi, biroq texnik vositachi sifatidagi faoliyatini lozim darajada bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

Xususan, UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996) 12-moddasi [5] (“Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali tuzilgan shartnomalar”)da shartnoma insonning bevosita ishtirokisiz, elektron tizimlarning o‘zaro axborot almashuvi orqali tuzilgan taqdirda ham, agar tomonlardan biri bunday tizimdan foydalanishni istagan bo‘lsa, shartnoma haqiqiy hisoblanishi belgilangan.

“A contract shall not be denied validity or enforceability on the sole ground that it was formed by the interaction of automated message systems” — ya’ni shartnoma faqat avtomatlashtirilgan vositalar orqali tuzilganligi sababli haqiqiy emas, deb hisoblanishi mumkin emas.

Shuningdek, UNCITRAL Model Law 15-moddasi (“Elektron xabarning yuborilgan va qabul qilingan vaqtini aniqlash”) elektron hujjatlarning yuridik kuchini belgilashda muhim hisoblangan vaqt omilini aniq huquqiy standartlarga bog‘laydi.

Mazkur modda quyidagicha belgilaydi: “An electronic message is deemed sent when it enters an information system outside the control of the originator; it is deemed received when it becomes capable of being retrieved by the addressee.” Boshqacha aytganda, elektron xabar yuborilgani yuboruvchining nazoratidan chiqqan paytdan, qabul qilingani esa adresatning axborot tizimiga yetib kelib, undan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

2-taklif. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish.

Yangi modda: “10¹-modda. Elektron platformalarning axborot berish majburiyati”

Elektron tijorat platformasi iste’molchiga quyidagilarni oldindan taqdim etishi shart:

1. taklifni joylashtirgan shaxsning huquqiy maqomi: “tadbirkor” yoki “jismoniy shaxs”;
2. platforma reytingi va qidiruv natijalarining asosiy mezonlari;
3. shartnomani kim bajarishi, yetkazib berish va qaytarish uchun kim javobgar ekanligi;
4. iste’molchi huquqlari qo‘llaniladimi yoki yo‘q — aniq ko‘rsatilishi shart.

Elektron tijoratning jadal rivojlanishi va onlayn marketplacelarning kengayishi fonida iste’molchilarni himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “DIRECTIVE 2011/83/EU (Consumer Rights Directive)”ning Article 6a [6] da onlayn platformalarda sotuvchi maqomi — “trader” yoki “non-trader” — ning aniqligi, takliflarni reytinglash algoritmi, shuningdek shartnoma majburiyatlarining kimga tegishliligi bo‘yicha iste’molchiga oldindan majburiy axborot berish talabi belgilangan. Mazkur norma iste’molchining onlayn xarid jarayonida haqqoniy va to‘liq axborotga ega bo‘lishini ta’minlaydi va elektron savdo munosabatlarida xatarlarni kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida bunday norma mavjud emas. Natijada, ko‘plab elektron platformalarda iste’molchilar sotuvchining huquqiy maqomi, reyting mezonlari yoki shartnoma majburiyatlarini aniqlash imkoniyatidan mahrum bo‘lib, aldov va noto‘g‘ri ma’lumotlarga duch kelmoqda. Shu sababli, milliy qonunchilikka ushbu xalqaro tajriba va norma asosida elektron tijorat platformalarida axborot shaffofligini ta’minlovchi maxsus talablarni kiritish dolzarb va zarur hisoblanadi.

3-taklif. “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunga o‘zgartish kiritish. Elektron shartnomalarda qo‘llaniladigan huquq (lex consumeris).

Yangi modda: “14¹-modda. Elektron savdoda iste’molchining huquqiy himoyasi”

1. **Iste’molchi ishtirokidagi elektron shartnoma bo‘yicha nizolar odatda iste’molchining doimiy yashash joyi huquqi bilan tartibga solinadi.**
2. **Agar shartnomada boshqa davlat huquqi tanlansa ham, iste’molchi O‘zbekiston Respublikasining majburiy himoya normalaridan mahrum etilishi mumkin emas.**
3. **Platformada tovar yoki xizmatni taklif qiluvchi tadbirkor O‘zbekiston hududiga faoliyatini yo‘naltirgan deb hisoblanadi, agar:**

a) sayt O‘zbekistonga yetib berishni taklif qilsa;

b) narxni so‘mda ko‘rsatsa;

c) marketing va reklama O‘zbekiston bozoriga yo‘naltirilgan bo‘lsa.

Elektron tijorat shartnomalarida iste’molchi huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro amaliyotda alohida ahamiyat kasb etadi. “Rome I Regulation (EC No 593/2008)”ning Article 6(1) [7] iste’molchining odatiy yashash joyi huquqi asosiy qo‘llaniladigan huquq sifatida belgilangan. Bu norma iste’molchining yashash joyi davlatining qonunchiligi uning himoyasini ta’minlashi kerakligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Article 6(2) moddasida, taraflar shartnoma uchun boshqa davlat huquqini tanlagan bo‘lsa ham, bunday tanlov iste’molchiga berilgan majburiy himoyani cheklab yoki kamaytirib yuborishi mumkin emasligi aniq belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida iste’molchi ishtirokidagi elektron shartnomalar uchun qo‘llaniladigan huquqni belgilovchi

maxsus norma mavjud emas. Natijada, milliy elektron tijorat platformalarida iste'molchilarning xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy himoyasi kafolatlanmagan bo'lib, elektron savdo munosabatlarida huquqiy noaniqliklar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, O'zbekiston qonunchiligiga iste'molchi ishtirokidagi elektron shartnomalarda qo'llaniladigan huquqni aniq belgilovchi modda kiritish dolzarb va zarur hisoblanadi.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat platformalarida tuziladigan shartnomalarning huquqiy tabiati sohasida milliy qonunchilik hali ham xalqaro standartlarga to'liq moslashmagan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida elektron shartnomalarning yuridik kuchi, platformalarning vositachi sifatidagi javobgarligi, elektron xabar yuborilgan va qabul qilingan vaqti, shuningdek, iste'molchi huquqlarini himoya qilish va qo'llaniladigan huquq masalalari batafsil tartibga solinmagan. Shu sababli amaliyotda ko'plab noaniqliklar, nizolar va iste'molchilarning yetarli himoyasizligi kuzatilmoqda.

Tahlil natijalari asosida uch asosiy taklif ishlab chiqildi: birinchidan, Fuqarolik kodeksiga elektron shartnomalar va ularning yuborilgan/qabul qilingan vaqti haqidagi maxsus norma kiritish; ikkinchidan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunga platformalarning axborot berish majburiyatini aniq belgilovchi norma kiritish; uchinchidan, "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunga elektron shartnomalarda qo'llaniladigan huquqni belgilovchi norma kiritish.

Ushbu takliflar amalga oshirilishi bilan O'zbekiston elektron tijorat bozorida huquqiy aniqlik va barqarorlik oshadi, iste'molchi va tadbirkor o'rtasida ishonch mustahkamlanadi, shuningdek, milliy qonunchilik xalqaro tajriba va standartlarga moslashadi. Natijada, elektron shartnomalarning yuridik kuchi kafolatlanadi, transchegaraviy savdo va investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratiladi hamda elektron tijoratning huquqiy infratuzilmasi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (1995-yil 21-dekabr, 163-I-son). 353-modda. [Amaldagi tahrir]. **URL:** 21.12.1995. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism) **Murojaat sanasi:** 11.11.2025

2. Егоров Н.Д. Гражданское право. Учебник. В 3 т. Т. 1. 6-е изд., перераб. и доп. / Под ред. Н.Д. Егорова, И.В. Елисеева. – Москва: Проспект, 2008. – С. 272

3. Васильев С.В. Гражданско-правовое регулирование отношений в сфере электронной коммерции: дис. ... канд. юрид. наук. – Москва, 2006. – С. 138

4. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013.

5. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce. Vienna: United Nations, 1996. **URL:** UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce with Guide to Enactment 1996 with additional article 5 bis as adopted in 1998 **Murajaat sanasi:** 14.11.2025

6. Directive 2011/83/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2011 on consumer rights. Official Journal of the European Union, L304/64, 2011. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32011L0083

7. Regulation (EC) No 593/2008 of the European Parliament and of the Council of 17 June 2008 on the law applicable to contractual obligations (Rome I). **URL:** Regulation - 593/2008 - EN - Rome I Regulation - EUR-Lex **Murojaat sanasi:** 14.11.2025